

TILIMIZDAGI SO'ZLAR NELARDAN SO'ZLAR?

Mavlonova Durdona Shuxrat qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti

2-bosqich talabasi

durdonamavlonova@8.gmail.com.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tildagi so'zlar, ularning kelib chiqishi va tarixi tahlil qilinadi. Tilning muloqot vositasi ekanligi inobatga olib qaralsa, undagi har bir atama, istiloh muhim ahamiyat kasb etishini unutmaslik darkor. Lisonlardagi istilohlarni tadqiq etishda ularning qardosh va qardosh bo'lmagan tillar ekanligini nazarda tutish har tomonlama maqsadga muvofiq bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *til, so'z, atamalarning vujudga kelish tarixi, terminlar ma'nosi, istilohlarning lisonlardagi ko'rinishi.*

Har bir til borki, u ichki va tashqi manbalar natijasi ta'sirida o'zini boyitib boradi. Darhaqiqat, o'zbek tilida ham o'z va o'zlashgan so'zlar mavjud bo'lib, ularning aksariyat qismi arabcha hamda forsha so'zlar sanaladi. Bundan tashqari, rus, ingliz, nemis tilidan o'zlashgan ba'zi so'zlar ham mavjud. Xo'sh, tilimizdagi o'zlashma so'zlarning ma'nosi va kelib chiqishini qay darajada bilamiz? Ana shu atamalarning ayrimlari etimologiyasi o'zbek (turkiy) tiliga tegishli ekanligi haqidachi?

Yomg'irdan panada bo'lish va quyoshdan himoyalash uchun foydalanadigan vositani soyabon deb ataymiz. Hozirgi kunda ko'pchilik bu so'zni o'z nutqida zontik tarzda qo'llaydi. Ma'lumki, "zontik" atamasi ruscha hisoblanadi. Ushbu atamaning kelib chiqishi gollandcha bo'lib, "zonnedeck", ya'ni "quyosh qoplamasi" degan ma'noni bildiradi. Bundan ko'rinadiki, talaffuzlar almashinishi natijasida bu so'z rus tilida zont, zontik holida saqlanib qolgan ekan. U holda, "soyabon" so'zi o'zbekchami, yoki arabiy-forsiy so'zlardan birimi?

"Soyabon" forsha so'zidir. Soyabonning sof turkiychada muayyan bir istilohi bormi?

Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk" da bu istiloh "jangalduruq" sifatida qo'llangan bo'lib, u yomg'irdan, quyosh issig'idan boshni saqlash uchun vosita ekanligi qayd etilgan.

Jangalduruq namatdan tikilganligini manbalar qayd etadi. Bu narsa yomg'irpo'sh yoki oddiy yopinchiq emas. Chunki yopinchiq qadimgi turkiy tilda "jug'urqan" so'zi bilan ifodalangan. Qozoqlar esa o'sha vositani qolshatir, ya'ni qo'lchodir holida atashlari aniqlandi.

Nutqimizda maosh, oylik so'zlarining tez-tez qo'llanilishi kuzatiladi. Maosh va oylik butun bir oy mobaynida faoliyat yuritgan shaxslarning ish haqi tushuniladi. Maoshning kelib chiqish tarixi qanday? O'zbekiston Qahramoni, ijodkor Erkin Vohidovning "So'z latofati" kitobida yozilishicha, maosh so'zining ma'nosi tiriklik, hayot kechirish, yashamoqdir. Hazrat Navoiy ham "Maosh aylamak ajdaho komida", deya bu so'zni xuddi shunday ma'noda aytganlar, ya'ni shoh huzurida uning istak-irodasi bilan yashamoq ajdarho og'zida tiriklik qilmoq bilan barobar.

Biz anglagan maosh asli shu ma'noning hosilasi.Qadimdan davlat xizmatidagi kishilarga maosh tayinlangan,ya'ni tirikligi ta'minlangan.

Bu so'zga o'zakdosh bo'lgan maishat istilohining qismati ajoyib.Yashamoq ma'nosidagi bu atama bugun tilimizda aysh-ishratni bildirsa,urdu tilida so'zlashuvchi hindlar uni iqtisod ishlatar ekanlar .Maosh so'zining yemak va ish haqi ma'nolari bizga yunon tilidan kirib kelgan dieta so'zining ikki ma'nosini eslatadi.Dietani biz parhez o'rnida ishlatamiz.Lekin aslida dieta taom demakdir.Yemakning hamma xili,qazi-qarta ham,yovg'on sho'rva ham dieta hisoblanadi.

Qadimgi Yunonistonda eng yuqori davlat organi bo'lgan xalq majlisi a'zolariga beriladigan ish haqi ham dieta deb atalgan.

Yunoncha bu so'zning hayot kechirish ma'nosi ham,tanovul ma'nosi ham,mablag' ma'nosi ham arabcha maoshga muvofiq keldi.

So'z xazinamiz boyligida shunday bir so'z borki,uni talaffuz qilishimiz bilan yoki unga kitoblarda,gazetalarda ko'zimiz tushishi bilan birgina ma'noni anglaymiz.Vaholanki, Sharq qo'lyozmalaridagi manbalarga murojaat qilsak,bu so'zning o'ttiz bir ma'nosini topish mumkin.Juda ko'p shakldoshiga ega istiloh rang istilohidir.Birma-bir so'zning shakldoshlari ma'nosiga to'xtalib o'tamiz."So'z latofati"da muallif bu so'zlarni quyidagicha joylab,ta'rifini keltirgan.Birinchisi va eng mashhuri oq,qora,qizil singarilardagi tus,ikkinchisi hissa,nasiba,uchinchisi ayb va oriyat,to'rtinchisi ranj-u iztirob,beshinchisi quvvat va imkon,oltinchisi jon,yettinchisi nor tuya,sakkizinchisi mol-mulk,oltin,to'qqizinchisi foyda,o'ninchisi darveshlarning ko'k to'ni,o'n birinchisi ravish,tarz,o'n ikkinchisi tog' echkisi,o'n uchinchisi makr-u hiyla,o'n to'rtinchisi ko'karish,yuz ochish,o'n beshinchisi yaxshilik,o'n oltinchisi salomatlik,o'n yettinchisi sharm-u hayo,o'n sakkizinchisi qon,o'n to'qqizinchisi chiroy va latofat,yigirmanchisi miqdor,yigirma birinchisi o'g'rilik,yigirma ikkinchisi qimor va qimordan topilgan boylik,yigirma uchinchisi tangri va ega,yigirma to'rtinchisi ota,yigirma beshinchisi yuzdagi hol,yigirma oltinchisi lutf va ramz-u ishora,yigirma yettinchisi quvnoqlik va sho'xlik,yigirma sakkizinchisi qo'ng'iroq,yigirma to'qqizinchisi qahr-u g'azab,o'ttizinchisi ipak,o'ttiz birinchisi xiyonat.O'zbek tilida rangning o'ttiz ikkinchi ma'nosi ham bor.Chehra,yuz,bet,aft ma'nosida.Rangi ro'y,ya'ni yuzning rangi so'zidan ro'yning tushib qolishi natijasida paydo bo'lgan.Rangi siniq,rangi buzuq,rangi sovuq iboralari shundan kelib chiqqan.

Mumtoz adabiyot namoyandalaridan biri Lutfiyning baytida rang birinchi,asosiy - tus ma'nosida kelgan. Alisher Navoiy baytidagi rangin tus qon tusi,ya'ni o'n sakkizinchii raqamli mazmunga ega.Shoh va shoir Bobur baytida esa o'n uchinchii ma'no,ya'ni hiyla o'rnida qo'llangan.

Bundan ko'rinadiki,rangning ranginligidan ijodkorlar mahorat bilan foylanishgan.

Tildagi terminlarning etimologiyasini o'rganish mobaynida ko'pchilikka ma'lum bo'lgan va bo'lmagan istilohlar va ularning bir necha ma'nolarni anglatishi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Bilamizki,hind,urdu tillarida bizga tanish bo'lgan so'zlar ko'p.Xususan,muhabbat,inson,olam,osmon singari so'zlar ularning ham qo'shiqlarida tarannum etiladi.

Yana shuni unutmaslik kerakki, bizga tanish hamma so‘zlar ham biz tushungan ma‘noni anglatmaydi.

Mabodo siz Hindistonga jurnalist sifatida borgan bo‘lsangiz, zinhor-bazinhor kamina muxbirman, deya ko‘rmang. Negaki siz men yaramas ayg‘oqchiman, degan bo‘lasiz. Bir qarashda insonga jumla g‘alati, g‘aliz tuyiladi. Boisi shuki, kamina tuban, pastkash ma‘nosini anglatadi. Muxbir esa ayg‘oqchi, josus demakdir.

Kundalik hayotimizda yogurt, jir, magazin singari so‘zlar borki, ular bir qarashda rus tilidan o‘zlashgan so‘zlardek ko‘rinadi. Bu atamalarining asli kelib chiqish tarixi qanday?

Serqirra ijodkorlardan biri Eshqobil Shukurning "Boboso‘z izidan" nomli kitobida yozilishicha, "Yogurt" so‘zini bugungi kunda endigina tili chiqayotgan bolalar ham bilishadi. Ingliz tilidagi "yoghurt" atamasi meva murabbosi aralashtirib tayyorlangan sut-qatiq mahsuloti nomini bildiradi. Demak, yogurt ruscha emas, balki inglizcha so‘z ekan-da. Xulosa qilishga shoshilmaslik zarur. Mahmud Koshg‘ariy izohiga ko‘ra, qadimgi tilimizda bu so‘z yog‘urt shaklida bo‘lib, ivigan sut, qatiq ma‘nosini anglatgan. Buni qarang, ushbu mahsulot- aralashma ham o‘z so‘zimiz ekan, faqat sayohat qila-qila talaffuzi o‘zgargan, xolos.

Ushbu kitobda muallif "Magazindagi xazina" sarlavhasi ostida magazin istilohiga izoh keltirib o‘tgan. Magazin - bir qarashda ruscha so‘zga o‘xshaydi. Lekin u asli sharqqa oid, ya‘ni arabcha bo‘lib, "maxazin" shaklida bo‘lgan va boshqa tillarga ko‘chgan. Turkiy millatlar quyoshi, ya‘ni "shams ul-millat" i Alisher Navoiyning mashhur

Yigitlikda yig‘ilmning maxzaning,

Qarilik chog‘i xarj qilg‘il ani...

Satrlaridagi "maxzan" so‘zi ham asli shu so‘zga borib taqaladi. Bu so‘zlarning shakliga diqqat bilan qaraydigan bo‘lsak, ularning tarkibida "xazina" so‘zining borligini sezishimiz mumkin. "Maxazin" so‘zining tub ildizi "saqladi", "to‘pladi" degan ma‘noni anglatgan. "Mag‘oza" so‘zi ham "magazin" so‘ziga yaqin. "Xo‘ja Nasriddin" filmida "Mag‘oza – "almashtirish", degani", — degan gap bor.

Endi "jir" so‘zining etimologiyasiga to‘xtalaylik. Alibek Rustamovning "So‘z xususida so‘z" kitobida ta‘kidlanishicha, "jir" so‘zi tilimizda "yog'", "moy" ma‘nosini anglatadi. O‘zg‘in kishiga nisbatan "Bunga hech jir bitmayapti" yoki "Buning hech jiri yo‘q" degan iboralar shu mazmundan kelib chiqqan. Qiziqarli jihati shundaki, rus tilidagi "jir" so‘zi asli bizning tilimizdagi ayni shu "jir" so‘zining o‘zidir. Negaki "jir" so‘zining turkiy so‘z ekanligi Mahmud Koshg‘ariyning lug‘atida aks etgan.

XULOSA

Buni qarangki, tilimiz tarkibidagi terminlar tarixiga nazar tashlasak, biz o‘zlashgan so‘z deb o‘ylaydigan istilohlar asli turkiycha ekanligining guvohi bo‘lamiz. Aynan mana shu jarayonda yuzimizda so‘z bilan ta‘riflab bo‘lmas mamnunlik ifodasi aks etadi. Mening fikrimcha, bu har bir turkiy millatlarning tiliga bo‘lgan hurmat va ehtiromning bir belgisi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, til millatning ruhidir, undagi barcha so‘zlarning ma‘nolarini o‘rganish, bilish, har bir insonning burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.M.Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk"
- 2.A .Rustamov "So'z xususida so'z" T.1987
- 3.E.Shukur "Boboso'z izidan"
4. E.Vohidov "So'z latofati"
- 5.O'zbek tilining izohli lug'ati.
- 6.O'zbekcha–gollandcha lug'at.